



MAQOMLAR MUSIQA SANATIMIZNING DURDONASIDIR

Muallif: Xolmirzayeva Gulnoza Alijonovna¹

Affilyatsiya: Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14383468>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada orqali biz maqomlarimizga berilayotgan yuksak e’tiborni, maqomlarimizning naqadar buyuk tilsim, san’at esa hamisha nafasatga chorlaydigan manba ekanligini, sharq mutafakkirlarining musiqa haqidagi fikrlari, ularni musiqa madaniyati darslarida qo’llash metodlari, musiqa fanida darslarning samaradorligini oshirishda mutafakkirlarning yozib qoldirgan risola-yu ilmiy ishlaridan foydalangan holda maktab o’quvchilarini ham ijroviy, ham ijodiy barkamollikka erishishlari uchun ilmiy meroslar-u yaratilgan asarlaridan foydalanish yo’llari o’rin egallagan.

Kalit so’zlar: Maqom, mutafakkir, musiqa, shashmaqom, tarbiya, ta’lim, metod

Tarixdan ma’lumki yer yuzida yashovchi har bir xalq millatning musiqa madaniyati va san’ati o’sha xalqning ma’naviy boyligi bo’lib hisoblanadi. Musiqa shu qadar buyuk ne’matki xalq ma’naviyatini belgilab beradigan buyuk tilsimdir. Sharq mamlakatlarining asosiy boyligi esa maqomlar hisoblanadi.

Mustaqil O’zbekistonimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, o’zgarishlar jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hamda madaniy jihatdan o’sib jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o’rin olishida o’zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar forumidagi ishtirokida, so’zlagan nutq va tashabbuslari biz navqiron avlodlar uchun juda katta motivatsiya bag’ishlamoqda: - “Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiyning bir hikmati bor: “so’z – gul, ish – meva”.

O’ylaymanki, bugun belgilab oladigan rejalarimiz qanchalik pishiq – puxta bo’lsa, ishingiz ham shunchalik yaxshi samara beradi”, - dedi Shavkat Mirziyoyev. Sizlar ko’p kitob o’qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o’tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo’lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg’oniylar, Beruniy va Ibn Sino, Ulug’bek, Navoiy, Boburiylar, Buxoriy va Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda, deydi yurtboshimiz iqtidorli yoshlar bilan o’tkazilgan “yoshlar forumida”. O’zbek milliy madaniyatimizning milliy kuy qo’shiqlarini, maqomlarini o’ziga xosligini e’tirof etar ekanmiz, bular barobarida: ularni ijro qilish, tinglash umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchilarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish hamda hozirgi kunimizni to’laqonli idrok etish uchun eng avvalo tariximizni yaxshi bilmoqlik dolzarb vazifa bo’lib hisoblanadi. Chunki tarix millatning ko’zgidir.

Zero har bir xalq o'z tarixini bilmay turib kelajakni qura olmaydi. Chunki har bir yangilik tarixiy bog'lanish orqali amalga oshiriladi. Musiqa ta'limining bu kabi yangi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularni barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos manbaa bo'lib hisoblanadi. Musiqa ta'limining mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Shu o'rinda bugungi kunda maqomlarimizga berilayotgan yuksak etibor haqida gapirish joizdir: Muxtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning " o'zbek milliy maqom san'atini rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-sonli qarori mamlakatimizda mumtoz musiqi san'atimizni yanada rivojlantirish va har qachongidan ko'ra ko'proq e'tibor berish lozimligini ko'rsatdi.

Asrlar davomida buyuk shoirlar, olim- fuzalolar, mohir bastakorlar, xofiz va sozandlarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan tobora sayqallanib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat o'zbek va tojik xalqlarining balki, sharq mamlakatlarida qolaversa dunyo musiqi san'ati va madaniyatida o'ziga xos ahamiyatga egaligi bilan e'tibor qozongan. Mumtoz musiqi san'atimiz durdonasi bo'lmish Shashmaqom YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilib, uning reprezentiv ro'yxatiga kiritilganligining o'zi buning yaqqol tasdig'idir.

O'zbek xalqining ana shunday umrboqiy, dunyoda tengi yo'q ma'naviy bisotlaridan biri shubhasiz milliy bastakorlik ijodi bo'lib, u shu soha mutaxassislari tomonidan ilgari surilgan taxminlarga ko'ra bir yarim – ikki ming yillik tarixni o'z ichiga oladi.

Maqom atamasi arabcha so'z bo'lib, istiqomat o'rni turar joy ma'nolarida keladi. Musiqada esa maqom – musiqi asboblarida kuy hosil qiladigan parda ya'ni tovushlarning joylashgan o'rni bo'lib hisoblanadi. Maqomlar sozanda va xonandalar tomonidan yakka yoki hamnafaslik ya'ni jo'rnavozlikda ijro etiladi. Xususan Buxoro amirlarining muhtasham saroylarida jo'rnavozliklar asosan tanbur, doira, afg'on rubobi, sato yoki qo'biz, ba'zan esa bo'lamon cholg'ularidan mahoratli foydalanilgan. Bu sozlar ichida asosan tanbur sozi yetakchi soz bo'lib hisoblangan. Chunki tanbur sozining torlari maqom pardalariga moslab sozlashda va maqom yo'llarini mukammal yangratishda birmuncha qulayliklarga ega. Doira cholg'usi esa sozanda va xonandalarning bir me'yorda usulni his qilishlarida ko'makchi vazifasini bajaradi.

Maqomlarimizning aytim yo'llarida o'zbek va fors shariyat darg'alaridan Navoiy, Bobur, Rudakiy, Jomiy, Lutfiy, Fuzuliy, xofiz Amiriy, Zebuniso, Nodira, Ogahiy va boshqalarning ishq dardi ila yo'g'rilgan falsafiy, nasixatomus, diniy mazmundagi g'azallari shuningdek xalq to'rtliklaridan foydalanilgan. Maqomlar asosan og'zaki tarzda ustoz shogird an'anasi orqali avloddan avlodlarga o'tib kelmoqda.

Mustqil O'zbekistonimizda yosh avlod ta'lim – tarbiyasining asosiy maqsadi: mamlakatimizda har tomonlama rivojlangan, sharqona axloq – odobga asoslangan milliy tarbiyani amalga oshirish. Buni pirovardida o'quvchi yoshlarni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, axloqiylik, poklik, halollik ruxida tarbiyalashni talab etadi bu borada biz o'z o'rnida mahoratla maqomlarimizdan foydalansak arziydi chunki ular negizida: oliy insoniy fazilatlar, yuksak madaniyat va ma'naviyat, xalqimizning milliy ruxiyati va

qadriyatlarini, orzu – umidlari tasvirlanadi. Maqomlarimizni ilgari surgan holda ilg'or tajribalarga yondashib, musiqa darslarida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Sharq allomalari mashoyixlar musiqa san'atiga yuqori baho berib, uning inson ruhiga ma'naviy quvvat bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlaganlar. Musiqa insonga ma'naviy ozuqa bo'lishi bilan birga uni tarbiyalashda ham ahamiyatlidir. Chunki, ruhi tetik va barkamol kishi o'zida yaxshi insoniy fazilatlarini mujassam eta oladi.

Farobiy: "musiqa ilmi shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi" – degan.

Hazrat Abu Bakr Buxoriy – Kalobodiy musiqa tovushlari – nag'malarni tariflab, ularni "jon quvvati va ruh ozig'iturur. Agar jon nag'madan quvvat topsa, o'z maqomi sari ishrof aylaydi, ul maqom ila mashg'ul bo'lardi" deb yozadi. Demak bundan ko'rinadiki, musiqa insonga ma'naviy ozuqa bo'lishi bilan birga, uni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etar ekan. bundan ko'rinib turibdiki, har zamon va makonda mutafakkirlarning musiqa haqidagi qarash va fikrlari ijobiy bo'lganining tasdig'i desak mubolag'a qilmaymiz.

Mutafakkir – ilm egasi, bir yoki bir nechta fan sohasini egallagan, yangi yo'nalishlar, kashfiyotlar yaratgan olim, favqulodda zehn va zakovat, eng yuqori va har taraflama rivojlangan, chuqur fikrlaydigan iste'dod sohibini anglatuvchi atama.

Musiqa – turli tuman tovushlar bilan obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy emotsional mazmunga ega bo'lgan san'atning bir turi. "Musiqa Kishida ulug' hislar jo'shqin fikrlar uyg'ota oladigan manbaa bo'lib, uni ruhan boyitadi pok qiladi, kamolga yetkazadi. Musiqa tufayki kishi o'zida o'zgacha yangi kuch sezadi, turmush uning nazarida yangi rang bo'yoqlarda jilolanadi"- deydi taniqli rus kompozitori D. Shostakovich.

"Musiqa ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatuvchi quvvatga ega. Musiqa shunday hislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qo'shilmog'i lozim"- deb ta'kidlaydi Arastu.

San'at qaysi shakl va ko'rinishda bo'lmasin, o'z ta'sir imkoniyatkari bilan ichki ma'naviy, emotsional va badiiy estetik tarbiya vositasiga aylana oladigan manbalardan hisoblanadi. Musiqaning tarbiyaviy kuchi zero uning bugungi kundagi ahamiyati nihoyatda beqiyosdir. Musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda toppish qiyin. Eng muhimi bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. Insonning kamoloti haqida gapirar ekanmiz albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmasligini e'tirof etish joiz.

Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy – tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tamonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy -axloqiyqadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umum ta'lim va kasbiy bilim, Malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Metod – (yun. "metodos" – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot)- voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar,

majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlashda, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'ya olishlik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ilm – fan madaniyat va ma'naviyat har qanday mamlakat yoki xalqni yuksaklarga ko'taradi va uning taraqqiyotini kelajagini belgilab beradi. Xalqimiz yoshlariga bunday ma'naviyatni san'at va madaniyatimiz maqomlarimiz orqali singdirsak nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi qarori "Xalq so'zi" gazetasi 2017 yil 18 noyabr soni.

I. Rajabov Maqomlar masalasiga doir T.1963y.

O.Matyoqubov Maqomot T 2004y

Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). M.M.Hayrullayev T.A1996yil.

Hasanova Musiqa va tarbiya T.1993 y.

Ro'ziyeva D.I. O'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish T. Fan 2007.- 191 b.

G. Sharipova Musiqa o'qitish metodikasi (ma'ruzalar matni). TDPU 2000y.

